



International scientific journal  
**“INTERPRETATION AND RESEARCHES”**

volume 1 issue 10  
15. 06. 2023



1.	“ХИЗАНАТУЛ ВАҚИЁТ АСАРИ ҲАНАФИЙ ФИҚҲИНИ ЎРГАНИШДА МУҲИМ МАНБА” Мамашикуров Бекназар Бобомурадович	5
2.	“АХВОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТ”, “КИБЕРТАҲДИД” ВА “КИБЕРХАВФСИЗЛИК” ТУШУНЧАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЖАМИЯТ ҲАЙОТИГА ТА’СИРИ Dusbojev A.T.	11
3.	IMPORTANT ASPECTS OF INVOLVING CHILDREN IN PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS PROCESSES Abdullayev Abduqayum Abdulkhayevich	19
4.	ALISHER NAVOIYNING QIT’ALARINI “MUAMMOLI VAZIYAT”, “MENING FIKRIM” USULLARI ORQALI O’RGANISH Abdullayeva Dildora Shokir qizi	23
5.	TURIZM SOHASIDAGI KASB VA ISHCHI NOMLARINI O’ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MASALALARI Quadratbek Abduraxmonov	30
6.	UCH O’LCHAMLI KUBIK PANJARADAGI IKKI FERMIONLI SISTEMAGA MOS SHREDINGER OPERATORINING XOS QIYMATLARI, ULAРNING SONI VA O’RNI Avalboyev I.B	35
7.	BRONCHIAL ASTHMA: CURRENT CONCEPTS Athira Viswaprasad Maniyath Annaev Muzaffar	38
8.	CHARLZ DIKKENS VIKTORIYA DAVRI ADABIYOTINING MASHHUR NAMOYONDASI Nigina Yaxyayeva Madina Yaxyayeva	50
9.	DESIGN DEVELOPMENT OF AUTOMATED CONTROL SYSTEM STRUCTURE USING HEAT PUMP Nabijonov Dilshodjon Maxmudjon o’g’li	55
10.	ENHANCING PERFORMANCE AND RELIABILITY: THE IMPORTANCE OF ELECTRIC MOTOR DIAGNOSTICS Djuraev Sherzod Sobirjonovich To’xtasinov Davronbek Xoshimjon o’g’li	60
11.	TALABALARNING IJTIMOIIY FAOLLIK KOMPENTENSIYALARINI TARIXIIY BILIMLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH Ergasheva Maftunaxon Avazbekovna	63
12.	DEVELOPING A TELEMETRY SYSTEM FOR FIRE DETECTION IN PIPELINES: ENHANCING SAFETY AND EFFICIENCY Fayzullayev Dedaxo’ja Zokirjon o’g’li	69
13.	FORMATION OF COMPETENCIES RELATED TO TYPES AND DIRECTIONS OF ALTERNATIVE ENERGY SOURCES Abdurakhmanov Dilmurod Egamberdievich	72
14.	JEK LONDON ASARLARI TARJIMALARIDA BADIY TASVIRIIY VOSITALARNING O’RNI Yo’ldasheva Mahliyo Faxriddin qizi	75
15.	THE THEORETICAL STUDYING OF THE PARAMETERS OF THE NEWLY IMPROVED DIELECTRIC SEED OF COTTON SORTER DEVICE Xudayberdiyev Farxod Toxirjonvich,	80

## CHARLZ DIKKENS VIKTORIYA DAVRI ADABIYOTINING MASHHUR NAMOYONDASI

**Nigina Yaxyayeva**

IIV Buxoro akademik litseyi

**Madina Yaxyayeva**

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Charlz Dikkensning hayoti va ijodi, asarlarining qisqacha tahlili, dunyoga taniqli rus, ingliz va fransuz olimlarining Dikkens haqidagi fikrlari, qolaversa, Dikkensning hozirgi kunda mashhur bo'lgan hikmatli so'zlari keltirilgan. Shu bilan bir qatorda, Dikkensning Viktoriya davridagi ijod mahsullari, ayniqsa, tarbiyaviy-axloqiy mavzudagi romanlari haqida bayon etilgan. Maqolada tadqiq obyekti sifatida Charlz Dikkensning tarbiyaviy-axloqiy ruhdagi “Nikolas Nikklbi hayoti va sarguzashtlari”, hamda avtobiografik asar hisoblangan “Oliver Tvist” romanlari tanlangan.

**Kalit so'zlar:** realizm, Viktoriya davri, tarbiyaviy-axloqiy roman, avtobiografik roman.

Ingliz adabiyoti haqida so'z borganda, Charlz Dikkens nomini eslamaslik mumkin emas. Butun hayoti davomida nodir asarlari bilan o'z kitobxonlari qalbidan joy olgan. Angliyaning mashhur yozuvchilari sirasiga kiradigan Dikkens, o'zining ijod mahsullarida Viktoriya davrining ayovsiz shafqatsizliklari, nohaqliklari, jinoyat va jazo, inson hayotining o'simlikka o'xshab so'lib borayotganligini ochiqchasiga qog'ozga tushirgan. Bugungi kunga kelib esa, mashhur romannavis ijodiga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Dikkens nafaqat eshitganlarini, balkim ko'rgan kechirganlarini mardlarcha qo'rqmasdan o'z qalamini charhlab noyob ijod mahsullarini yaratgan. U nafaqat yozuvchi, balki erkin fikrlovchi va hayot tashvishlarini o'z asarlarida tasvirlagan. Dikkensning eng sevimli janr turlaridan biri bu romandir. O'tkir qalam sohibi hisoblangan Dikkens o'zining romanlarida dunyo qarashni kengaytiruvchi adib sifatida tan olingan. Uning mashhur nomi nafaqat o'n sakkizinchi asrda tilga olingan, balki yigirmanchi asrlarni bog'lab turuvchi ko'prik bo'lib xizmat qilgan.

Charlz Dikkens o'n to'qqizinchi asrning o'rtalarida adabiyot olamiga kirib kelgan. U bir qator olimlar Skott va Bulverlar bilan tenglasha oladigan noyob qobiliyat sohibi bo'lgan. Ularning asarlarida romantizm jo bo'lgan bo'lsa, Dikkensning ishlarida ko'proq realizm o'rin topgan. U ijod yo'lida ko'plab qiyinchiliklarga duch kelganiga qaramasdan, qalam yurg'izishda davom etgan adib sifatida e'tirof etiladi. U butun hayot yo'li davomida hayotning achchiq va shirin,



omadli va omadsiz, ishonch va umidsizlik kabi tuyg’ularni boshidan kechirgan. Shunga qaramasdan, u hech qachon yozishdan to’xtamasdan bir-biridan farq qiladigan va noyob adabiy janrlarga murojaat etgan holda o’z asarlarini boyitib, kitobxonlariga taqdim etgan.

Dikkensning boshqa yozuvchilardan farqi shunda ediki, uning dunyo qarashi va dunyo haqidagi tasavuri o’zgacha bo’lgan. Bu uning har bir asarida o’quvchiga seziladi. Ayniqsa, “Katta umidlar” asari bunga yaqqol misol bo’la oladi, Asarning butun mazmun mohiyati Viktoriya davridagi Angliya hayotiga bag’ishlangan bo’lib, ham kulguli ham qayg’uli bo’lishiga qaramay, kitobxonlar qalbidan joy olgan. Dikkens o’zining asarlarida inson qadri, uning jamiyatdagi o’rni, unga nisbatan jamiyat tomonidan qilinayotgan nohaqliklar haqida ro’yi rost yozgan olim sifatida Angliya adabiyoti muhim o’rin yuz tutadi. Yozuvchining Devid Kopperfild asarida ham qahramonlarining ichki kechilmalari va XIX asrda Angliyadagi ijtimoiy hayot haqida yozilgan. Bu asar tarixda eng ko’p sotilgan ikkinchi roman deb e’tirof etilgan.

Dikkensning “Oliver Tvist” va “Nikolas Nikklbi hayoti va sarguzashtlari” asarlari tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’lib, zamonaviy davr talablari asosida hayot kechirish haqida yozilgan. Asardagi qahramonlar turli xil insonlar bilan tanishish qatorida, yangi dunyoni ham o’rganishga intiladilar. Masalan, kichkina Oliver ko’cha kissovurlari, firibgarlar va tovlamachilarga duch kelgan bo’lsa, Nikolas Niklbi esa, o’ta xavfli jinoyatchilar bilan bir jamiyatda yashaydi. Qahramonlar jamiyatni shunga o’xshash qurt-qumursqalardan tozalashga jon jaxti bilan kirishadilar. Ammo yosh Oliverning irodasi sustlik qilganligi sababli, u jamiyat ta’siri ostida qoladi. Shundan so’ng Dikkens unga butunlay qarama-qarshi fe’l-atvor sohibi Nikolas Nikklbi obrazini o’zining keying asari – “Nikolas Nikklbi hayoti va sarguzashtlari” asarida gavdalantiradi. U nafaqat kuchli iroda sohibi, balkim hayotga bo’lgan o’zgacha qarashlari bilan jamiyatga sezilarli ta’sirini o’tkaza olgan qahramon bo’lgan. “Nikolas Nikklbi hayoti va sarguzashtlari” romanida Angliya hayotining yanada kengroq tasviri berilgan<sup>1</sup>. Roman qahramoni-yosh yigit Nikolas Niklbining otasi vafot etgandan so’ng, Londonga o’z hayotini o’tkazish uchun keladi. U o’z onasi va singlisini boqish maqsadida qo’lidan kelgan barcha ishlarni qilib ko’radi. Dikkens o’z asarida Nikolas Nikklbini mard, jasur va o’ziga bo’lgan ishonchi baland bo’lgan yigit timsolida gavdalantirgan. Nikolasning boy amakisi ham bo’lgan (Ralf Niklbi) baxtga qarshi u shafqatsiz, ziqna va nafaqat jiyaniga yordam berish, balki uni yo’q qilish uchun hamma narsani tayyor zolim antagonist inson sifatida tasvirlangan.

Charlz Dikkens hech qachon tarixni o’rganmoqchi bo’lmagan, aksincha, boshqa yozuvchilarga o’xshab yangicha qarashlarni joriy etmoqchi bo’lgan.<sup>2</sup> Dikkens ijodiy faoliyatini nashriyotdan boshlagan va o’zining birinchi romanini gazetalarning har

<sup>1</sup> В. В. Ивашева. творчество Диккенса. Изд-во МГУ, 1954, стр. 227.

<sup>2</sup> <https://uchimsya.com/a/mbOo162Z>

shafqatsiz taqqirlanganiga guvoh bo'lasiz. Dikens ilk marotaba Amerikada va Nyu-Yorkda mashhurlik nashidasini his qilib, britaniyaliklar va ularning kemandagi faoliyati aks ettirilgan hikoyalarni yozgan.

Uning pyessaga bo'lgan qiziqishi tufayli, xar bir asaridagi qahramonlarini shu darajada aniq tasvirlaganki, real voqealarga asoslangan holda drama va melodrama janrlariga murojaat etgan. Bu o'z navbatida teatr tushunchasining Viktoriya davrida paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Dikens qahramonlari ingliz adabiyotida eng esda qolarli va, albatta, ularning ismlari eng tanishlaridan biridir. Ebenezer Skruj, Fagin, Gemp xonim, Charlz Darnay, Oliver Tvist, Uilkins Mikawber, Pekksniff, Miss Havisham, Vakford Skikers va boshqalarni yaxshi bilishadi. Uning romanlari davomida eng aniq chizilgan "belgi" - bu Londonning o'zi. Shahar chekkasidagi murabbiylik mehmonxonalaridan Temza daryosining quyi qismigacha poytaxtning barcha qirralari Londonni chinakam sevgan va uning ko'chalarida ko'p soat yurgan kishi tomonidan tasvirlangan.

F.M.Dostoevskiy Dikensning ishlarini yuqori baholab shunday degan: “Zamonaviy hamda hozirgi voqelikni tasvirlash san'ati”ning beqiyos namoyondasi<sup>4</sup>. Chestertonning aytishicha, Dikensning san'ati "hayotga o'xshaydi, chunki hayot kabi u mas'uliyatsiz va aql bovar qilmaydi". Dikensning kitoblarida ifodalangan dunyoni idrok etish, umidsizlik va umidsizlikni tan olmasligi, garchi ko'pincha shafqatsiz va hatto halokatli vaziyatlar tasvirlangan. Biroq, eng og'ir holatlarda ham Dikensning qahramonlari yaxshilikning yakuniy g'alabasiga bo'lgan ishonchini hech qachon so'nmasligidandir<sup>5</sup>. Fransuz romannavistlari Viktor Gyugo va Emil Zolya, Dikensni shunday ta'riflashgan: “Dikens ingliz adabiyotida o'zining real qarashlari bilan jamiyatda bo'layotgan barcha nohaqliklarni yaqqol namoyon etgan”<sup>6</sup>.

Charlz Dikens roman yozishdan tashqari hikmatli gaplar ham yozib qoldirgan. Shulardan,

**“Once a gentleman, and always a gentleman.** (Jentlmen har doim jentlmen bo'lib qoladi.)

**A loving heart is The truest wisdom.** (Sevgi yuragi donolikdan muhimroq.)

**There is a wisdom of The head, and a wisdom of The heart.**(Boshida donolik bor, yurakda donolik bor.)

**The pain of parting is nothing to The joy of meeting again.**(Ajralish azobini uchrashuv quvonchi bilan taqqoslab bo'lmaydi)<sup>7</sup>.

Xulosa qilib aytganga, Dikens butun ijodi davomida tanqidiy realizm adabiyoti ideallariga sodiq qolgan holda ijod qilgan. Uning yozib qoldirgan asarlari va ibratli

<sup>4</sup> <https://englandlife.ru/charlz-dikens/>

<sup>5</sup> <https://stories-of-success.ru/charlza-dikkensa>

<sup>6</sup> [https://www.newworldencyclopedia.org/entry/Charles\\_Dickens](https://www.newworldencyclopedia.org/entry/Charles_Dickens)

<sup>7</sup> [articles/vklad-ch-dikkensa-v-anglijskuyu-literaturu/](https://articles/vklad-ch-dikkensa-v-anglijskuyu-literaturu/)



sonida bo'lib-bo'lib nashr etib, o'quvchilarga taqdim etgan. Keyinchalik esa u gazetalardan ajralib, mustaqil yozuvchi bo'lishga intiladi va Londonda kechirgan hayoti haqida yozishni boshlab, 1833-yilda ularni "The Monthly" jurnaliga topshiradi. Dikkensning ajoyib va tushunarli maqolalari ommabop bo'ladi va so'ngra ularni kitobga tushirdi.

Dikkensning birinchi “*Sketches by “Boz”* (“Eskizlar Boz”) maqolasi 1836-yilda, dunyo yuzini ko'rdi. Birinchi kitobining muvaffaqiyati tufayli, u gazetaning muharriri qizi Ketrin Xogarthni nikohiga oldi. Shu darzda oradan yigirma yil o'tdi, Dikkensning oilaviy hayoti uning yozuvchilikdagi muvaffaqiyati va dunyoviy shon-shuxrati kabi ulug'vor va metindek mustahkam edi. Ammo uning adib sifatidagi shuxrati abadiy saqlanib, Ketrin bilan oilaviy hayoti to'la holda payoniga yetdi.

Charlz Dikkens ijodini to'rt davrga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchi davr: 1833-1841 yillar. Bu davrda yozuvchi o'zining “*Sketches by “Boz”* (“Boz ocherklari”), “*The Pickwick Papers*” (“Pikvik klubi maktublari”), “*Oliver Twist*” (“Oliver Tvistning sarguzashtlari”), “*The life and adventure of Nicolas Nickleby*” (“Nikolas Niklbining hayoti va sarguzashtlari”) asarlarini yaratdi. Ikkinchi davri: 1842-1848 yillar. Bu davrda yozuvchi o'zining “*Martin Chuzzlewit*” (“Martin Chezlvitning hayoti va sarguzashtlari”), “*Dombey and Son*” (“*Dombi* va o'g'il”) romanlarini yozadi. Uchinchi davri: 1849-1859 yillar. Adib bu davrda o'zining “*David Copperfield*” (“Devid Kopperfild”), “*Bleak House*” (“Sovuq uy”), “*Hard Times*” (“Og'ir vaqtlar”), “*Little Dorrit*” (“Kichkintoy Dorrit”) romanlarini yozdi. To'rtinchi davr: 1860-1870 yillar. Bu davrda yozuvchi o'zining “*Great Expectations*” (“Katta orzular”), “*Our Mutual Friend*” (“Umumiy do'stimiz”), “*The Mystery of Edwin Drood*” (“Ervin Drud siri”) nomli so'nggi romanlarini yozdi<sup>3</sup>.

1837-yildan boshlab, Dikkens o'zidagi yozuvchanlik qobiliyatini, “*The Pickwick Papers*” and “*Oliver Twist*” (“*Pickwick qog'ozlari*” va “*Oliver Twist*” asarlarida namoyish etgan. Har bir romanning oylik to'lovlari taxminan 7,500 ta so'zni tashkil etgan.

Dikkens qo'lidagi qalamini ya'na ishga solib, “*Nicholas Nickleby*”ni 1839 yilda 1841 yilda esa “*The Old Curiosity Shop*” (“*Eski Qiziqishlik do'konida*”) nomli romanlarini muvaffaqiyatli yozib tugatgan. Romanlardan tashqari Dikkens jurnallar uchun doimiy maqola chiqarib o'z kitobxonlarini o'zining ijod namunalari bilan baxramand etgan.

Dikkens Viktoriya davrining o'tkir qalam sohibi sifatida tan olinib, hozirga qadar qoldirgan nodir asarlaridan kitobxonlar ko'nglidan joy olgan. U o'zining ishlarida butun hayoti davomida ko'rgan kechirganlarini qog'ozga tushurgan. Uning asarlarini o'qir ekansiz inson hayoti jamiyat va unda yashayotgan insonlar qo'lida

<sup>3</sup> Холбеков М.Н. Инглиз адабиёти классиклари. Био-библиографик қўлланма. – Жиззах: ЖДПИ, 2014. – Б. 96; Чарльз Диккенс. 1812-1870 //Холбеков М. Чет Эл адабиёти классиклари.

gaplari orqali har bir kitobxon o'ziga kerakli bo'lgan motivasiyani oladi. Adibning romanlari ingliz va jahon adabiyotining nodir durdonalariga aylanib qoldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlari:**

1. Life and adventures of Nicolas Nickleby, Charles Dickens.- Macmillan and co-limited St.Martin's Street, London,1916.
2. Oliver Twist, Charles Dickens. – Oxford University Press.
3. В. В. Ивашева. творчество Диккенса. Изд-во МГУ, 1954, стр. 227.
4. Холбеков М.Н. Инглиз адабиёти классиклари. Био-библиографик кўлланма. – Жиззах: ЖДПИ, 2014. – Б. 96;
5. <https://uchimsya.com/a/mbOo162Z>
6. <https://englandlife.ru/charlz-dickens/>
7. <https://stories-of-success.ru/charlza-dikkensa>
8. [https://www.newworldencyclopedia.org/entry/Charles Dickens](https://www.newworldencyclopedia.org/entry/Charles_Dickens)